

# YO'L SHAROITLARINI HISOBGA OLGAN HOLDA TRANSPORT HARAJATLARINI BAHOLASH USULLARI

Xolxo'jayev Elmurod Muxtorovich  
Jizzax politexnika instituti, TVM kafedrasi assistenti  
Kvonsi Kim  
Adju Avtomobil kolleji, Koreya, Chungam, 33415,  
Avtomobil muhandisligi fakulteti

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada yo'l sharoitiga bog'liq ravishda transport harajatlarini baholash usullari xususida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** yoqilg'i sarfi, yo'l sharoiti, transport harajatlari, baholash usullari, transport tezligi, keltirish koeffitsientlari.

**Annotation:** In this article deals with methods of estimating transport costs depending on road conditions

**Key words:** fuel consumption, road conditions, transport costs, assessment methods, transport speed, coefficients of transport.

Avtomobilning asosiy ishlash ko'rsatkichlaridan biri yonilg'i sarfidir. Yonilg'i sarfi miqdoriga yo'l sharoitlari ta'sir ko'rsatadi: qoplama turi, holati (qoplama ravonligi), rejadagi egrilik, yo'lning nishabligi, shuningdek harakat tezligi va tezlanishi bilan bog'liq omillar: kesishish va tutashma, qatnov qismi kengligi, vertikal egrilik radiusi, yo'l harakatini boshqarish, harakat jadalligi va harakat tarkibi. Yo'l uchastkasida yoqilg'i sarfini hisoblash uchun uning parametrlari, oqim jadalligi va tarkibi o'rganiladi. Bular yo'ldagi dastlabki ma'lumotlar (ma'lumotlar banki) va yangi loyihalashda – yo'lning loyihalash ma'lumotlari.

Hozirgi kungacha, yoqilg'i sarfi jihatidan, yo'l parametrlarini baholash uchun, yakka avtomobil transport tezligi grafikalar, mavjud yo'l bo'yicha harakat sharoitini baholash uchun – avtomobillar oqimi uchun harakat tezligi grafigi va uning tezligiga qarab yakka avtomobil yonilg'i sarfi aniqlanadi. Avtomobil turiga qarab yoqilg'i sarfini hisoblash uchun har xil turdag'i avtomobillarni hisoblashda

keltirish koeffitsientlarini aniqlaymiz. Har xil turdagи avtomobilarning hisoblangan avtomobilga keltirish koeffitsientlari 1-jadvalda berilgan.

**1-jadval**

<b>1</b>	<b>2</b>
Yengil avtomobil	1.00
Yengil yuk avtomobili	2.85
O‘rta yuk avtomobili	3.57
Og‘ir yuk avtomobili	4.75
Avtopoezd	5.17
Avtobus yo‘lovchi sig‘imi, odam.:	
50–60	4.17
80–100	4.75

Har xil turdagи avtomobilarning keltirish koeffitsientiga keltiradigan bo‘lsak, ma‘lum bir harakat jaddalligida transport oqimi uchun yoqilg‘i sarfini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$\sum Q' = Q \left( \sum N_i K_{np} \right), \quad (1)$$

bu yerda:  $\sum Q$  – transport oqimini yoqilg‘i sarfining yig‘indisi;

$Q$  – hisobiy avtomobilning yoqilg‘i sarfi;

$K_{np}$  – hisobiy avtomobilning keltirilgan koeffitsienti;


$N_i$  – avtomobilning harakat jadalligi.

Ushbu formula bo‘yicha hisoblangan transport jadalligida avtomobillar oqimi uchun yoqilg‘i sarfini hisoblaymiz. Aniqlik uchun, hisoblash natijalariga asoslanib, yo‘l uzunligi bo‘ylab yoqilg‘i sarfining o‘zgarishini o‘rganamiz.(1-rasm) eng yuqori yoqilg‘i sarfiga ega bo‘lgan yo‘l uchastkalarida yonilg‘ining sarflanish jadvalini tahlil qilib, ularni kamaytirish chora–tadbirlarini ishlab chiqamiz. Transport harajatlarining yana bir muhim ko‘rsatkichi tashuv tannarxidir. Transport vositalarining ish unumдорлиги, tashuv tannarxi, yo‘l–transport hodisalari soni kabi ishlash ko‘rsatkichlari nafaqat harakat tezligiga, balki uning o‘rtacha kvadratik og‘ishiga ham bog‘liq. O‘rtacha kvadratik og‘ish 12 dan 15 gacha bo‘lganda tannarx 7% ga oshadi, yo‘l–transport hodisalari soni–1 km /

yilga 1,3 dan 1 gacha, avtomobilning ish unumdorligi 97 dan 93% gacha kamayadi. Yo'l sharoitiga qarab o'rtacha kvadratik og'ishni prognozlash quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\sigma_V = C_V K_\sigma \text{CV}_{\text{cp}} \quad (2)$$

Ma'lumki, tashuv tannarxi masofaga qarab o'zgarib turadi. Masofaning ortishi bilan bu yo'l turining asosiy mezonlarini hisobga olgan holda optimal tezliklardan eng yuqorisini tanlash kerak. Masalan, xalqaro transport tashuvi (uzoq masofali aloqa uchun yo\_llar) uchun asosiy mezonlar aloqa tezligi, yo'l harakati xavfsizligi, hissiy zo'riqish (haydovchining ish sharoiti)



**2-rasm. Yo'l sharoitini transport harajatlariga qarab baholash grafigi**

Grafik qurish tartibi quyidagicha amalga oshiriladi:

- 1) V. V. Silyanovning usuli bo'yicha erkin sharoitlarda ( $V_{\text{cp}}$ ) o'rtacha oqim tezligini hisoblaymiz;

2 ) V. Filippov usuli bo'yicha V<sub>sr</sub> uchun o'rtacha kvadrat cheklanishini ( $\sigma_V$ ) aniqlaymiz;


3) Yo'lning xarakterli qismlari uchun maksimal va minimal harakat tezligini aniqlash:

$$V_{\max} = V_{cp} + t\sigma_v, \quad (3)$$

$$V_{\min} = V_{cp} - t\sigma_v \quad (4)$$

bu yerda  $t = 1.64$ . 95 % ishonch ehtimolligi bilan;

4 ) Yo'lning funksional maqsadiga qarab optimal harakatlanish tezligi ( $V_{\max}$  va  $V_{\min}$ ) chegarasini 2-rasmga qo'yamiz. Avtomobil yo'llarining transport-ekspluatatsion sifatini baholashda foydalaniladigan avtomobilda tashish tannarxlarining o'zgarishini aniqlash mumkin.



**2– rasm. Yo'l uzunligi bo'ylab transport harajatlarini o'zgarish jadvali**

Transport harajatlarini harakat tezligining o'rtacha kvadrat og'ishiga qarab baholanishi. Qiymatning oshishi oqimning har xilligini, manyovrlar sonining

ko‘payishini, harakat xavfsizligining pasayishini ko‘rsatadi.

Transport vositalarining ishlashi, tashuv tannarxi, yo‘l–transport hodisalari soni kabi ko‘rsatkichlari nafaqat transport tezligiga, balki uning o‘rtacha kvadratik og‘ishiga ham bog‘liq holda 12 dan 15 gacha bo‘lgan o‘rtacha kvadrat og‘ishining oshishi bilan narx 7%, yo‘l–transport hodisalari soni–1 dan 1,3 km / yilgacha, avtomobilning ishlashi 97 dan 93% gacha kamayadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Сильянов В.В. транспортно-эксплуатационные качества автомобильных дорог. М.:Транспорт, 2010.
2. TRANSPORT PROJECT ANALYSIS A. Ilingual Training Manual in five volumes. Vol.2. Transport Sector Analysis.2004. dition.
3. Садиков И.С. Прогнозирование и управление транспортно-эксплуатационными качествами автомобильных дорог. Изд. Адолат, 2006, с. 380.
4. Paterson illiam Road Deterioration and Maintenance Effects: Models for Planning and anagment. The Highway Design and Maintenance standards Series, The Jhons Hopkins niversity Press, Baltimore, Maryland. 2004.
5. The Highway designend Maintenance Standards Model. 2 Volumes. The Highway Desigen and Maintenance standards Series, The Jhons Hopkins University Press. Baltimore, Maryland. 2007.
6. Quero, Cesar and Surhid Gautam. Road Infrastructure and Economic evelopmen:Some Diagnostic Indicators Policy Research Working Paper, WPS 921. The orld Bank. Washington D.C. 2001.